

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA TENGIL SANOAT INSTITUTI

“Tasdiqlayman”
Dekan T.B. Murodov
“ _____ ” _____ 2015 yil

DIPLOM LOYIXASIGA TOPSHIRIQ

Kafedra: TO'QIMACHILIK MATOLARI TEXNOLOGIYASI

Kafedra mudiri: D.Qodirova _____
(sana) (imzo)

Ilmiy rahbar: B. Mirusmonov _____
(sana) (imzo)

Topshiriq bajarishga qabul qilindi: _____ 30.01.2015 yi

Talaba imzosi _____

5320900-yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi talim
yo'nalishi

Diplom loyixasini tayyorlash bo'yicha topshiriq

Talaba: Ergasheva Madina

**1. Loyiha mavzusi: Monarh rusumli trikotaj to'quv mashinasida Milan lastigi
asosida mahsulot ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonani loyihalash.**

Institut rektorining 2014 yil “4.12.” 623-T-sonli bo'yrig'i bilan tasdiqlangan

2. Tugallangan diplom loyihasini himoya qilish muddati 10.06.2015

3. Loyiha bo'yicha dastlabki malumotlar : mahsulot turini tanlash va asoslash,
to'qima turini tanlash va asoslash, mashina turini tanlash va asoslash, xom-ashyo
turini tanlash va asoslash, texnologik jarayon ketma-ketligi, texnologik
ko'rsatkichlar hisobi, bir mahsulotga ketgan xom-ashyo sarfi hisobi, bir yillik ishlab
chiqarish hajmi hisobi, asosiy omborlar va yordamchi xonalar yuzasi hisobi tikuv
agregati hisobi.

4. Diplom loyihasida bajariladigan bo'limlar ro'yxati:

A) Texnologik qism

B) Maxsus qism

V) Mehnat muxofazasi va ekalogiya qismi

G) Iqtisodiy qismi

5. Ko'rsatilishi shart bo'lgan chizmageometrik materiallar ro'yxati:

A) Texnologik qism

B) Iqtisodiy qismi

6. Loyihaning tegishli bo'limlar bo'yicha konsul'tantlari:

1. M.M. Mirsadiqov

2. T. G'aniyev

3. S.Yusupov

7. Topshiriq berilgan sana _____ 30.01.2015 yil _____

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIG

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA TENGIL SANOAT INSTITUTI

5320900-yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash texnologiyasi
talim yo'nalishi

DIPLOM LOYIXASI

Mavzu: Monarh rusumli trikotaj to'quv mashinasida Milan lastigi
asosida mahsulot ishlab chiqrishga ixtisoslashgan korxonani loyihalash.

Talaba: Ergasheva Madina

Fakultet: TST guruh: 6-11

Konsultantlar:

1. Texnologik qism

B. Mirusmonov _____
(sana) (imzo)

2. Maxsus qsim

B. Mirusmonov _____
(sana) (imzo)

3. Mehnat muxofazasi va ekologiya qismi

T. G'aniyev _____
(sana) (imzo)

4. Iqtisodiy qsim

S.Yusupov _____
(sana) (imzo)

Ilmiy raxbar: B. Mirusmonov _____
(sana) (imzo)

Kafedra mudiri: D.Qodirova _____
(sana) (imzo)

TOSHKENT-2015 yil

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilib berildi, tez orada uning tashkiliy, huquqiyasosi barpo etildi va shu asosda tadbirkorlikning yangi qirralari shakllandi. Mustaqillik yillarida olib borilayotgan iqtisodiyot sohasidagi tub islohatlarni olib borishdan ko'zlangan maqsad mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'z mavqeini yanada oshirish orqali jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga yo'naltirilgandir. Bu muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish borasida hukumatimiz iqtisodiyotining o'zak tarmoqlarini jadal rivojlantirishga jiddiy e'tiborni qaratadi.

Bizning respublikamizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida har bir ishlab chiqarish bo'g'ni o'z oldiga asosiy maqsad qilib yuqori foyda olishni va bu maqsadga erishishda mavjud moddiy mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni talab etadi. Paxta tozalash korxonalari o'zlari ishlab chiqargan paxta tolasining asosiy qismini xorijga eksport qilmoqda. Xorijlik istemolchilar paxta tolasining sifatiga o'zlarining yuqori talabini qo'ymoqdalar. Shuning uchun istemolchilar talabini to'la qondiradigan, raqobatbardosh paxta maxsulotlarini ishlab chiqarishda nafaqat sifatli xom ashyo, ilg'or texnika- texnologiya, balki yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muhim kasb etadi. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida to'qimachilik sanoati va texnologiyasi yo'nalishida ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

O'tgan vaqt mobaynida qator ishlar amalga oshirildi. Ayni vaqtda investor tomonidan korxonaga 71.7 mln. doll. miqdorda investitsiya kiritildi. Endi korxonaga sekin-asta ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy texnologik asbob- uskunalari o'rnatildi va buning natijasida, yirik to'qimachilik sanoati xom-ashyosini yetishtiruvchi mamlakat hisoblangan O'zbekistonda yana bir zamonaviy korxonaga asos solindi. Xalqimiz bir necha ming yillardan buyon atlas, beqasam, banoras, shoyi, chit, bo'z qo'ying-ki, ne-ne gazlamalar ishlab chiqarish bobida jahonda dovuq

qozonib kelgan. Qadimda, birgina atlasning yuzga yaqin turi mavjud edi. Bu o'ta haridorgir mahsulotlar bilan mamlakat aholisini taminlabgina qolmay, Ipak yo'lidan o'tgan jahon bozorida ham ulkan nufuzga ega edik. Poytaxtmizda 2005-yildan buyon har yili an'anaviy o'tkazilib kelinayotgan halqaro O'zbekiston paxtasi yarmirkasi so'zimizning isbotidir. Ayni paytda o'zbek paxtasi Xitoy, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Janubiy Koreya, Singapur, Vetnam, Turkiya singari ko'plab mamlakatlarga eksport qilinmoqda. O'zbekiston paxta tolasi jahon bozorida o'zining yuksak sifati, pishiqligi, texnologik ko'rsatkichlarning yuqoriligi va jahon to'qimachilik sanoati talablariga javob bera olishi bilan mashxur "Textile Technologies Group" MCHJ xorijiy korxonasi 2013-yildan ishga tushirildi. Korxona ishga tushgandan boshlab to'liq ishlab chiqarish quvvatiga erishish, har yili 6 ming tonna ip gazlama kalavasi, 7,5mln kv. metr tayyor gazlamalar va 5 mln dona tayyor tikuvchlik ishlab chiqarishni taminlash ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning kamida 80 foizi eksportga yo'naltirildi. Shu bilan birga mingdan ziyod ishchi o'rinlari tashkil etildi. O'zbekiston yengil sanoati iqtisodiyotimizning ko'p tarmoqli innovatsion jihatdan g'oyat jozibador bo'lgan muhim tarmoqdir. Bugun "O'zbekiyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan 270 ta to'qimachilik, tikuvchlik, trikotaj korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini oshirgan holda, keng turdagi ip va gazlama, tikuvchilik, tikuvchilik-trikotaj, shuningdek, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori tarmoq uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Mazkur hujjat bilan tasdiqlangan dastur doirasida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarga teng 55 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish, shuningdek, yakuniy ishlab chiqarish quvvatiga ega integratsiyalashgan to'qimachlik komplekslarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dunyoning yetakchi davlatlari xorijiy kapitali ishtirokida 150 ta korxona tashkil qilindi.

To'qimachilik mashinasozligi korxonalarini tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. "O'zbekyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi Shvetsariyaning "Riter Mashinen fabrik AG" kompaniyasi bilan birgalikda bu boradagi loyihani amalga oshirmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik korxonalarining yuqori texnologiyali uskunalarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida Janubiy Koreyaning "TMT" va Germaniyaning "Terrot" kompaniyalari paypoq to'quv kompaniyalari bilan paypoq to'qish avtomatlari va dumoloq shaklda to'qiydigan mashinalarni ishlab chiqarishni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

"O'zbekyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli import uskunalarining texnik imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun Germaniyaning "Tryuchler", "Oyerlikon textile", Shvetsariyaning "Riter", Italiyaning "Marsoli", "Savio", Yaponiyaning "Toyota" va boshqa firmalar mahsulotlariga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash bo'yicha servis markazlari ochildi. 2012-yil oxirigacha "O'zbekyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan uch mingta yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradigan umumiy qiymati 150 million dollarga teng 20ta investitsiya loyihasini amalga oshirishni mo'ljallamoqda.

O'zbekiston to'qimachilik sohasida ulkan salohiyatga ega mamlakat dedi O'zbekistonda ushbu soha jadal rivojlanmoqda. Mamlakatingizda barqaror rivojlangan paxtachilik sanoati yurtingizda to'qimachilik tarmog'ining yuksak sur'atlarda taraqqiy etishiga xizmat qilayotur. "EurAsia-Fashion – Markaziy Osiyo bilan Yevropa o'rtasida moda sanoati sohasida sheriklik va hamkorlikni mustahkamlash" loyihasi nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqalarimiz o'rtasida to'qimachilik tarmog'idagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va bu borada o'zaro manfaatli, istiqbolli loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. O'zbekistonda ishbilarmonlarning faol va erkin ish yuritishini uchun barcha zarur imkoniyatlar yaratilganidan xabarimiz bor. O'zbekistonlik sheriklarimiz bilan ikki tomon uchun ham foydali hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish tarafdorimiz.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan “2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi va 2011-yil 27-dekabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi Investitsiya dasturiga oid qarorlarida mamlakatimizda ishlab chiqishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish vazifalari belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi. Zamoniviy texnika yutuqlarini soxaga tadbqiq etish, ishlab chiqrilayotgan mahsulot turlanini kengaytirish, ya’ni raqobatbardosh mahsulot turlarini yaratishda zamon modasi talabiga asosan dizayini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada ilmiy izlanishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Diplom loyixa ishining maqsadi. Monarch rusumli rtikotash mashinasida milan lastigi asosida mato ishlab chiqarish korxonasini loyixalash.

Diplom loyixasining maqsadiga erishishda quyidagi vazifalar belgilab olindi.

1. To‘qima uchun texnologik qismni bajarish.
2. To‘qimaga ta’rif berish.
3. Chiqindilar hisobini bajarish.
4. Maxsus qism: Aylana ignadonli mashinalarda trikotaj matosini rulonga o‘rashda friksion rolikni qo‘llash.
5. Ekologik qism: Korxonani loyihalashda bosh tarxga qo‘yiladigan talablar.
6. Loyixalanayotgan korxona uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish ko‘rsatkichlarini aniqlash.

I. Texnologik qism

1.1. Maxsulot turini tanlash va asoslash.

Trikotaj ishlab chiqarish sanoati yengil sanoatining eng tez rivojlanuvchi va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan tarmoqardan biridir. Trikotaj maxsulotlarining xilma-xilliga, betakrotliga, xususiyatlari jihatdantengi yo'qligi, ularga bo'lgan talabni yildan-yilga oshirib bormoqda.

Shu sabab mahsulot turini tanlash va asoslash bo'yicha asosan tavarga bo'lgan ehtiyoj orqali biz ishlab chiqayotgan maxsulot bozor talabiga ham javob berishi kerak. Trikotaj ishlab chiqarish texnologik jarayoni to'quv jarayoniga qaraganda qisqaroq va arzonroqdir. Bundan tashqari trikotaj to'quv mashinalarning unumdorligi to'quv stanoklarinikiga nisbatan ancha yuqori. Shu bilan birga trikotaj ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish o'ziga xos qiyinchilikka ega. Trikotaj ishlab chiqarishning har bir bosqichida turli murakkab amallar qo'llaniladi. Shu sababli bu talablarni yanada to'laroq qondirishda trikotajning tutgan o'rni kattadir. Iste'mol tovarlariga bo'lgan talablar xalqimiz orasida kundan kunga oshib bormoqda. Bozor talabini urganib chiqqan holda diplom loyiha ishida 1-maxsulot uchun bolalar yengi uzun maykasi va 2-maxsulot uchun ayollar yengi uzun koftasi tanlandi. Bunga sabab, ushbu maxsulotlarning qulayligi, havo o'tkazuvchanligi va dezayin jihatdan mavsumiy hisoblanadi.



Kiyimningold qismi



Kiyimning orqa qismi

1-rasm.Bahor va kuzga mo'ljallangan bolalar yengi uzun maykasi.



Kiyimning old qismi



Kiyimning orqa qismi

2-rasm. Ayollar yengi uzun koftasi.

Trikataj matolarini bichishga tayyorlash asosiy va murakkab jarayonlardan bo'lib trikatj maxsulotlari ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonning dastlabki asosiy qismlardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonni bajarishdan maqsad maxsulot ishlab chiqarishda tanlanadigan mato eni o'lchami uzunligi tanlanib bichish uchun matoning sifati matodagi nuqsonlar foizi aniqlanib so'ng bichish tayyorlanadi. Bichiladigan usul shunday iboratki trikataj maxsulotini gazlamalarga o'xshab maxsulotni tashqi qiyofasiga qarab detallar qirqiladi va maxsulot kerakli shakl berilib ular tikish jarayonida birlashtiriladi. Bu usul bilan trikataj ustki maxsulotlari 90% ishlab chiqariladi. Bunday usulda maxsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli miqdorda chiqindi ajraladi.

1.2.To'qima turini tanlash va asoslash.

Trikataj to'qimalari 2 guruhga bo'linadi.

1. Bosh to'qimalar.
2. Naqshli to'qimalar.

Bosh to'qimalar tekis to'qimalar bo'lib, halqa hosil qilish jarayoni o'zgartirmay, moslamalarsiz olingan, o'lchamlari bir xil halqalardan tashkil topgan, turli tuzilishga ega bo'lgan oddiy to'qimalardir. Bir qavatli ko'ndalangiga to'qilgan bosh to'qima suprem (glad) , bo'ylamasiga to'qilgan bosh to'qimalar esa sipochka, triko, atlasdir. Ikki qavatli ko'ndalangiga to'qilgan bosh to'qima rebana (lastik), teskari to'qima, buylamasiga tuqilgan bosh to'qimalar esa lastikli sipochka, lastikli triko va lastikli atlasdir. Xosilali to'qimalar-bu bosh tuqimag asosida olingan, bir xil ikki bosh to'qimaning o'zaro aralashib to'qilishi bilan hosil bo'lgan hosilaviy to'qimadir. Bir qavatli ko'ndalangiga to'qilgan xosilali to'qima xosilali glad hisoblanadi.


Bo'ylamasiga to'qilgan hosilali to'qimalar esa sukno, sharmedir. Ikki qavatli ko'ndalangiga to'qilgan hosilali to'qima interlock, hosilali teskari to'qimalardir.

Ushbu diplom loyiha ishida 1- maxsulot uchun futer, 2-maxsulot uchun Milan lastigi to'qimasi tanlab olindi.


Futer to'qimasining tuzilishi va xususiyatlari.

Tarkibiy to'qima asosiga qo'shimcha (futer) ipini ignalarga tanlab berib, ulardan halqa hosil qilmasdan shakillantirilgan to'qimaga futer to'qimasi deyiladi. Halqa Qatorida bitta futer ipi bo'lgan to'qimaga birlamchi, 2 ta futer ipi bo'lgan to'qimaga esa ikkilamchi va hokozalar, futer tuqimasi deyiladi. Futer tuqimasi oddiy yoki yopqichli bo'lishi mumkin.

Futer to'qimasi issiqlik saqlash xususiyati yuqoriligi bilan ajralib turadi va undan issiq kiyimlar ishlab chiqarishda keng foydalanadi. Aynan taralgan futer ipi tufayli to'qima issiqlik saqlash xususiyati 50% oshadi. Ushbu to'qima futer ipining mavjudligi tufayli arkibiy tuqimaga nisbatan kam chuziladi, sutiluvchanligi o'zgarmaydi. Halqa qator bo'ylab oldi tomonga buraladi, halqa ustunchalari bo'yicha esa buralmaydi.



3-rasm. Futer to'qimasini strukturaviy ko'rinishi.




4-rasm. Futer to'qimasini grafik yozuvi.

Milan lastigi tuzilishi va xususiyatlari


Trikotaj to'qimalari tasnifi tizimidagi bosh, hosilali, naqshli to'qimalar gurihining hech biriga ta'luqli bo'lmagan, o'z vaqtida shu to'qima elementlarining qo'shilishi bilan shakllangan trikotajga aralash to'qimalar deyiladi. Aralash trikotaj odatda turli guruh to'qima qatorlari yoki alohida elementlarining ma'lum tartibda takrorlanib kelishi bilan hosil bo'ladi. Ikki yoki o'ndan ortiq to'qima qatori yoki elementlarning qo'shilishi xususiyatlari o'zgacha yangi to'qimani to'qimani keltirib chiqaradi. Masalan, lastik to'qimasining boshqa to'qimalar bilan qo'shilishi uning eniga cho'ziluvchanligi, ya'ni elastikligi xususiyatini kamaytiradi. Bunday aralash to'qimalar shakl saqlash xususiyatiga ega ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda keng ishlatiladi.

“Reps” yoki valikli lastik nomi bilan ataluvchi lastik 1+1 va bir ignadonda olingan glad qatorining ketma-ket kelishi bilan, hamda “Milan lastigi” ya'ni lastik 1+1 va har ikki ignadonda alohida olingan glad qatorlarining ketma-ket kelishi bilan shakllantirilgan oddiy ko'ndalangiga to'qilgan aralash to'qimalar tarkibidagi glad qatorlari ularning shakl saqlash xususiyatlarini oshiradi.

Sifatli kam chuziluvchan, shakl saqlash xususiyatlari yuqori ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda halqa ipi uzunliklari va har ikki tomoni ko'rinishi bir xil tarkibiy, mutanosib, buralmaydigan “Milan lastigi” ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. Milan lastigi to'qimasi strukuraviy ko'qinishi.



6-rasm. Milan lastigi to'qimasi grafik yozuvi.

1.3.Mashina turini tanlash va asoslash.

Trikataj mashinalari va barcha trikataj ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini kelajakda takomillashtirish imkoniyatlari juda kattadir. Bu yo'nalishda muvaffaqiyatli ish olib borish birinchi navbatda yangi trikataj mashinalarni yaratish va ishlab chiqarish nazariyalarinni mukammallashtirishdir. Mashinani turini tanlashda mashinaning ish unumdorligiga, to'qimani to'qish imkoniyatiga ega ekanligiga katta etibor berish kerak. Yuqoridagi omillarni inobatga olib ushbu diplom loyiha ishida zamonaviy, kompyuterlashgan va eng asosiysi biz uchun kerak bo'lgan to'qima turini to'qish imkoniyatlariga ega bo'lgan bir ignadonli "PAIYLUNG" va ikki ignadonli "Monarh" rusumli trikataj to'quv mashinalari tanlandi.

PAIYLUNG bir ignadonli mashina bo'lib. Bir qavatli mashina ichki va ustki trikataj maxsulotlari (erkaklar, ayollar,bolalar) kiyimini ishlab chiqaradi. Bir ignadonli PAYLUNG va ikki ignadonli Monarh rusumli trikataj to'quv mashinalari bir munch takomillashgan bo'lib, ularning ish unumdorligi yuqoridir. Mashinalarda supreme, interlok, press, futer, aralash va naqsh trikataj to'qimalari to'qish mumkin.

Mashinalar barcha aylana ignadonli to'quv mashinalari kabi 3 ta asosiy qismlardan iborat.

1. To'quv tizimi.
2. To'quv tizimini ip bilan taminlash tizimi.
3. To'qilgan matoni tortish va o'rash tizimi.

Halqa hosil etishdagi ishchi a'zolari ish jarayonini nazorat qilish uchun mashinalar electron boshqarish va nazorat etish qurilmalari bn jixozlangan. Mashinalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlanganligi sababli, unda yuqori sifatga ega bo'lgan trikataj to'qimalari ishlab chiqariladi.

Rusimi	PAYLUNG	Monarh
Klassi	22	18
Ignadon diametri, mm	76.2	762
Ignalar soni	2544	1320
Sistemalar soni	2544	60
Mashinalar o'lchamlari, mm		
-balandligi	2645	2240
-shpulyarnik diametric	1585	3110
Elektrodigatel quvvati, kvv/s	7.5	7.5

Shu bilan birga jarayonida hosil bo'lgan chang va mayda puxlarni xaydash uchun parrakli (ventilyator) qurilmalari o'rnatilgan. Ushbu to'quv mashinalarida sifatli trikataj matolarini ishlab chiqarilishi ta'minlangan.

Matolardan bolalar, ayollar va erkaklar uhun mavsumiy yengil ichki va ustki trikataj buyumlari ishlab chiqariladi.

To'quv tizimi olayotgan ip jamg'aruvchi moslamaga kelib, undan tekislovchi taminlagichga keladi, unda ipning tekisligini va ipning tugunhalardan tozalanib ignadonga ignadonga beriladi. Ignadonga biriktirilgan zulflar va undagi eguvchi, ko'taruvchi, yarim tugallovchi klinlar almashtirilishi natijasida to'qimani turini o'zgartirishi mumkin. Asosan bu mashina ishlab chiqaradigan maxsulot turi lastik, interlok, futer, pressto'qimalarini to'qiydi. To'quv jarayonida tilchali ignalar bir-biriga 90 garudusda vertikal holatda joylashadi.

Mashinaning ish jarayoni va halqa hosil qilish a'zolari ish faoliyatini to'qish jarayonida avtomatik nazorat etish va to'xtatish qurilmalari bilan jixozlangan. Bu qurilmalar yordamida berilayotgan ip tarangligi o'zgarganda, igna singanda, matodan nuqson sodir bo'lganda mashina avtomatik to'xtatiladi. Shu bilan to'quv mashinalarida to'qilayotgan mato sifati ta'minlanadi. Diplom loyixasi uchun taminlanadi. Diplom loyixasi uchun tanlangan PAYLUNG va Monarh aylana ignadonli to'quv mashinalariyanan yuqoridagi omillarga asoslanib ishlaydi.

1.4.Xom-ashyo turini tanlash va asoslash.

Diplom loyiha ishida xom-ashyo sifatida ikkita maxsulot uchun paxta xom-ashyosi va undan yigirib olingan trikataj iplari tanlandi.

O'zbekiston Respublikasi paxta tolasini yetishtirib qishloq xo'jaligi soxasida asosiy o'rinlardan biri hoisoblanadi. Asosan o'rta va ingichka tolali paxta ishlab chiqariladi. Porloq-1.2.3 Sulton, Toshkent selensiya nomlari bunga misol bo'la oladi. Respublikamizning iqlim sharoiti mo'tadil bo'lganligi uchun, paxta tolasini yetishtirish hosildorligi yuqori.

Hozirgi kunda O'zbekiston paxtasi chetning Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlar bizning paxtamizga oldindan shartnoma tuzib hariq qilinmoqda ham davlatimiz paxta eksporti bo'yocha oldingi qatorlardan birida turadi.

Asosiy maqsad qayta ishlash, balki undan tayyor mazsulot ishlab chiqarilib ichki bozorni to'ldirib, bir vaqtning o'zida tashqi bozorga ham asta sekinlik bilan bosqichma-bosqich chiqib borishdir.

Bir vaqtning o'zida maxsulotlar bozorlarni to'ldirish bilan bir qatorda haridorlarga o'zining xush bichimliga va sifatlliligi bilan maqul kelmoqda. Respublikamizda hozirgi kunda o'zbek hom-ashyosi paxtadan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rinishi va sifati bo'yicha bemalol chet davlatlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bellasha oladi.

1.5. Maxsulot turini ishlab chiqarish texnologik ketma-ketligi zanjirini tanlash va asoslash.


Texnologik jarayon deb to'qimachilik matolari, tolalar, kalava, iplar to'qimalar, trikotaj mato va boshqalarning hususiyatlari o'lchamlari va shakli kabi sifat ko'rsatkichlarini mexanik ta'siri, havo, issiqlik, electron, kimyoviy usullar yordamida o'zgartirishga yo'naltirilgan ishlov berishdir. Bunday ma'lum ketma-ketlikka asoslangan tizim ishlab chiqarish texnologiyasi deb yuritiladi. Odatda texnologiyalar eski, zamonaviy va kelajakda qo'llaniladigan bo'lishi mumkin.

Hozirda mamlakatimizda yangi zamonaviy texnika-texnologiyalari kirib kelayotgan bo'lsada, aksariyat tarmoq korxonalarida eski texnologiyalar mavjuddir. Buninig asosiy sabablaridan biri o'rnatishda yengil sanoat yetarlicha diqqat e'tibor berilmaganligidir. Endilikda zamonaviy texnika texnologiyalarga asoslangan qo'shma korxonalar barpo etib, mavjud muammolar hal etilmoqda. Trikotaj mahsulotlari uchun texnologik zanjirining uch turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: yarim muntazam usul; muntazam usul; bichuvchi usul.

Yarim muntazam usulda mahsulot deyarli tayyor holatda bo'lib, faqatgina ayrim qisimlarini birlashtirish natijasida tayyor mahsulot hosil bo'ladi. Bu jarayonda asosiy ishni to'quv mashinasi bajaradi. Qolgan ishni esa tikuv bo'limida birlashtirish natijasida olib boriladi.

Muntazam uslub. Bu usulda mahsulotimiz tayyor holatda bo'lib, hech qanday boshqa ishlar amalga oshirilmaydi. Bu ikki uslub o'ziga hos bo'lishi bilan bir qatorda kamchiligi ham mavjud. Bular quyidagilar: ish unumdorligi past, mahsulot assortimenti kam va boshqalar. Fizikani oltin qoidasidan bu "kuchqan yutqazsang vaqtdan yutasan" buni ma'nosi shuki bir narsaga erishsang ikkinchisidan yutqazasan. Diplom loyiha ishida ikki mahsulot turi uchun uchinchi uslub ya'ni bichuv uslubidan foydalanildi. Bu uslubda ishlashda ham hom-ashyo sarfi yuqorida keltirilgan ikki uslubdan ko'p bo'lib lekin assortiment ko'pligi ish unumdorligi yuqoriligi va turli hil matolardan foydalanish mumkinligi bilan ham ajralib turadi.

Texnologik ketma-ketlik zanjiri.



1.6. Ustki trikotaj maxsulotlari uchun texnologik zanjirga tavsif

Hom ashyo ombori: hom ashyo omboriga korxonada ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotimiz hom ashyosi keltirib saqlanadigan joy hisoblanadi. Hom ashyo shu yerdan to'qish sexiga yuboriladi.

Laboratoriya: bu yerda hom ashyo omboriga kelgan ipimizdan 10% gacha bo'lgan miqdorda hom ashyo olinib tekshiriladi. Bunga sabab, bu ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotimiz uchun ishlatilishi kerak bo'lgan mahsulot sifatiga javob beradigan ipni standart yoki nostandartligi tekshiriladi Laboratoriya xar bir korxonada bo'lishi kerak.

To'qish sexi: bu yerda to'qish ishlari olib boriladi. Olinadigan mahsulotimiz soniga qarab, maydonimizga qarab mashinalari turi qo'yiladi. Bu yerda mahsulotimiz tayyor yoki yarim tayyor ko'rinishda keyingi bosqichga yuboriladi. Iplarni igna orqali bir-biriga qo'shilib to'qishi urma hisoblanadi. Bu jarayon asosida to'qima mato hosil bo'ladi. Alkim Tekistilda "Mayer", "Albi", "Orizo", "Terrort" kabi nemis texnologiyasi asosida so'nggi markadagi to'quv mashinalari ishlatiladi. Bu mashinlarda Germaniyaning "Garoz bekert" hamda Koreyaning "Samsung" ignalaridan foydalaniladi. Hozirgi kunda korxonalarning bu bo'limi 3 smenda faoliyat olib boradi.

Nuqson tekshirish va butlash xonasi: bu yerda to'qish sexida chiqqan yarim tayyor mahsulotimiz ko'zdan kechiriladi, sababi mahsulotimiz nuqsonsiz bo'lishini tekshirish maqsadida. Butlash bosqichida yeng qismi alohida yoqa qismi alohida qilib tanlanadi.

Bo'yash: O'ramada to'qilgan matoni nazorat mashinasida tekshiriladi, so'ngra maxsus kimyoviy moddalarni solingan suvda chayiladi va ularni buyurtirilgan ranglar bo'yicha bo'yaladi. Tayyor bo'yalgan rangli to'qima matoni qurilma mashinasiga solib quritiladi va maxsus paketlarga qadoqlanadi. Trikotaj matosi pardozlash jarayonida eniga qisqarib, bo'yiga cho'ziladi. Cho'zilish bilan pardozlangan trikotaj matosidan ishlab chiqarilgan trikotaj buyumi eksplatatsiya qilinganda yuvishdan keyin deformatsiyalanadi.

Trikotajga pardozi berilayotgan paytda uning cho'zilishi yoqoladi, avvalgi uzunlik tiklanadi. Buyumning shakli va o'lchamlari cho'zilish miqdoriga qarab o'zgaradi. Matoni tikuv korxonasida bichganda o'lchamlarini buyum uzunligi bo'yicha kattalashtirilgan eni bo'yicha trikotajni pardoziylash deformatsiya miqdori kamaytirilgan andozalardan foydalaniladi.

Bichish va tikish: Korxonaning ushbu bo'limida kesim, tasnif, tikuvchilik, tozalash, dazmol, paketlash, modalxona hamda aksessuar hizmatlari bo'lib, ular hammasi alohida funksiyalarga bo'linadi:

- Tayyor material kesimxonada kesim mashinalari yordamida kerakli mahsulot bichiladi, bichiladigan ishlar tasnifga qilinadi.
- Tasnifda bichilgan ishlar nazorat qilinadi, materialdagi kamchiliklar tekshirilib ajratiladi va undan so'ng tikuvchilarga tikish uchun beriladi.
- Berilgan matoni tikuvchilar tikib, tozalashga topshiriladi.
- Tozalash bo'limida tayyor bo'lgan mahsulotni ortiqcha iplardan tozalanadi va dazmolga topshiriladi.
- Dazmolni belgilangan o'lchamlar asosida amalga oshiriladi va dazmol qilingan tayyor mahsulotlarni paketlarga joylashtiriladi.

Bu yerda dam berish nuqson tekshirish, butlashdan chiqqan mahsulotlarimiz tayyor mahsulot xoliga keltiriladi. Tikuv mashinalari olinayotgan mahsulotimiz turiga qarab qo'yiladi. Ya'ni kettel, tambur va hokazo.

Tayyor mahsulot ombori: bu yerda tikuv sexidan chiqqan tayyor mahsulotimiz saqlanadi va shu yerdan sotuv markazlariga yuboriladi [9] .

1.7. Tanlangan to'qimaning texnologik ko'rsatkichlarini hisobi

Professor A.S.Dalidovich usulida

1-maxsulot uchun Futer to'qimasining texnologik ko'rsatkichlarni loyihalash.

Professor. A.S.Dalidovich usulida.

1.Ip qalinligi: $F = \frac{\alpha}{\sqrt{\frac{1000}{T}}} = \frac{1.25}{7.07} = 0.17 \text{ mm.}$

$$T_a = 20 \text{ teks}$$

$$T_F = 20 \text{ teks}$$

$$\alpha = 1.25 \text{ paxta ipi uchun}$$

2.Futer ipining yo'g'onligi.

$$F_F = \frac{\alpha}{\sqrt{\frac{1000}{T_f}}} = 0.17 \text{ mm.}$$

3.Halqa qadami futer to'qima uchun.

$$A_{ur.f} = \frac{n \cdot A_a + k \cdot A_f}{n + k} = \frac{40 \cdot 0.68 + 20 \cdot 0.68}{40 + 20} = 0.68$$

$$A_a \cdot 4 \cdot F = 0.68$$

n-halqalar soni futer ipisiz,

k-halqalar sono futerli.

4.Halqa qadami futer pratyashka uchun

$$A_f = 2(F_a + F_f) = 0.68$$

5.Gorizintal bo'yicha zichlik.

$$P_g = \frac{50}{A_{ur.f}} = \frac{50}{0.68} = 74 \text{ ta halqa}$$

C=0.865-birlamchi futer uchun,

$C=1.1 \div 1.2$ -ikkilamchi futer uchun.

6. halqa balandligi.

$$B = \frac{50}{P_v} = 0.588 \text{ mm.}$$

7. Vertikal bo'yicha zichlik.

$$P_v = \frac{P_g}{c} = \frac{73.5}{0.865} = 85 \text{ ta halqa}$$

8. Asos va futer ipining uzunligi.

$$L_a = \frac{78.5}{P_g} + \frac{100}{P_v} + \pi F_a = \frac{78.5}{73.5} + \frac{100}{84.97} + 3.14 * 0.17 = 2.7 \text{ mm}$$

$$L_f = \frac{\pi * A_{urf}}{2} = \frac{3.14 * 0.68}{2} = 1.06 \text{ mm}$$

9. To'qima yuza zichligi.

$$Q = 0.4 * P_g * P_v \left(\frac{L_a * T_a + L_f * T_f}{1000} \right) = 0.14 * 74.5 * 85 \left(\frac{2.7 * 20 + 1.06 * 20}{1000} \right) \\ = 188 \text{ g/m}^2$$

2-maxsulot uchun Milan lastigi aralash trikataj to'qimasi texnologik ko'rsatkichlarini loyihalash.

***Prof.A.S.Dalidovich*usulida.**

$$1.\text{ip qalinligi } F = \frac{1.25}{\sqrt{\frac{1000}{T}}} = 1.25/7.07 = 0.17 \text{ mm}$$

1. Halqa qadami. $A=Kf=4*0.17=0.68 \text{ mm.}$

2. Halqa qatori balandligi. $B=Ca0.865*0.68=0.56 \text{ mm. } c=0.865.$

3. Gorizantal bo'yicha zichlik. $P_{\Gamma} = \frac{50}{A} = \frac{50}{0.68} = 74 \text{ halqa.}$

4. Vertikal bo'yicha zichlik. $P_{\Gamma} = \frac{50}{B} = \frac{50}{0.56} = 89. \text{ halqa}$


5. Halqa ipining uzunligi.

$$l = \frac{78.5}{P_{\Gamma}} + \frac{100}{P_B} + \pi F = \frac{78}{74} + \frac{100}{89} + 3.14 * 0.17 = 2.7 \text{ mm.}$$

6. Trikataj to'qimasining yuza zichligi.

$$Q = \frac{0.4 * l * P_g * P_v}{1000} = \frac{0.4 * 2.7 * 74 * 89 * 20}{10000} = 142.2 \text{ g/m}^2$$

1.8 Andozlari yuzasini hisobi



1-chi mahsulotni andozlari yuzasini hisobi. Yengi uzun futbolkaning oldi ko'rinishi bo'lib, mahsulotni yarim qismini hisoblab

7-rasm. Mahsulotning oldi qismini yuzasini ko'rinishi uni ikkiga ko'paytirdik. Maqsad hisob kitobdan vaqtni qisqartirish uchun

1. Old qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a * b = 30 * 15 = 450. \text{ sm}^2$$

2. Old qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = a * b = 8 * 12.5 = 100. \text{ sm}^2$$

3. Old qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = 5 * 10 = 50 \text{ sm}^2$$

4. Old qismining S_4 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = \frac{a * b}{2} = \frac{5 * 5}{2} = 12.5 \text{ sm}^2$$


5. Old qismining S_5 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = \frac{a * b}{2} = \frac{8 * 1.5}{2} = 6 \text{ sm}^2$$

6. Old qismining S_6 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{2 \cdot 5}{2} = 5 \text{ sm}^2.$$

$$S_{oldi} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 \cdot 2 = 450 + 100 + 50 + 12.5 + 6 + 5 \cdot 2 = 1247 \text{ sm}^2$$



8-rasm. Mahsulot orqa qismini yuzasini hisobi.

1-mahsulotni andozalar yuzasini hisobi. Yengil uzun futbol kani ko'rinishi bo'lib, mahsulotni yarim qismini hisoblab uni ikkiga ko'paytirdik. t qismini yuzasini ko'rinishi

1. Orqa qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = S'_1 = 450 \text{ sm}^2$$

2. Orqa qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = S'_2 = 100 \text{ sm}^2.$$

3. Orqa qismining S_{13} to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = S'_3 = 5 \cdot 12 = 60 \text{ sm}^2$$

4. Orqa qismining S_4 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = S'_4 = \frac{2 \cdot 5}{2} = 5 \text{ sm}^2$$

5. Orqa qismining S_5 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = S'_5 = 6 \text{ sm}^2$$

6. Orqa qismining S_6 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = S'_6 = 5 \text{ sm}^2.$$

$$S_{orqa} = 1252 \text{ sm}^2$$

Maxsulod eng qismi.

$$S_1 = 33.5 * 7 = 234.5 \text{ sm}^2$$


$$S_2 = 4 * 7 = 28 \text{ sm}^2.$$

$$S_3 = \frac{33.5 * 5.5}{2} = 92.12 \text{ sm}^2.$$

$$S_4 = \frac{3.5 * 5.5}{2} = 9.6 \text{ sm}^2.$$

$$S_{yeng} = 390.12 * 4 = 1560.48 \text{ sm}^2$$

$$S_{umum} = S_{oldi} + S_{orqa} + S_{yeng} = 4061.48 \text{ sm}^2.$$



9-rasm. Mahsulotning yeng qismini yuzasini ko'rinishi

1-chi mahsulotni andozalar yuzasini hisobi. Futbolkaning yeng qismi ko'rinishi bo'lib, mahsulotni yarim qismini hisoblab uni to'rtga ko'paytirdik. Maqsad hisob kitobdan vaqtni qisqartirish uchun

- Yeng qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a \cdot b = 14 * 11 = 154 \text{ sm}^2$$

- Yeng qismining S_2 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{11 * 2}{2} = 11 \text{ sm}^2$$

- Yeng qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi


$$S_3 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{7 \cdot 14}{2} = 49 \text{ sm}^2$$

$$S_{3 \text{ umumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 = 214 \cdot 4 = 856 \text{ sm}^2$$

$$S_{1 \text{ umumiy}} + S_{2 \text{ umumiy}} + S_{3 \text{ umumiy}} = 2707 + 2835 + 856 = 6398 \text{ sm}^2$$

2-chi mahsulot uchun andozalar yuzasini hisobi. Bolalar komplektining oldi va orqa ko'rinishlari bo'lib, mahsulotni yarim qismini hisoblab uni ikkiga ko'paytirdik. Maqsad hisob kitobdan vaqtni qisqartirish uchun

10-rasm. Mahsulotning oldi, orqa va yeng qismlarini yuzasini ko'rinishi



1. Old qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a \cdot b = 180 \cdot 380 = 68400 \text{ mm}$$

1. Old qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hiso*i

$$S_2 = a \cdot b = 95 \cdot 150 = 14250 \text{ mm}$$

2. Old qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = a \cdot b = 1300 \cdot 90 = 11700 \text{ mm}$$

3. Old qismining S_4 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = \frac{20 \cdot 200}{2} = 2000 \text{ mm}$$

4. Old qismining S_5 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = \frac{20 \cdot 180}{2} = 1800 \text{ mm}$$

5. Old qismining S_6 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{90 \cdot 30}{2} = 1350 \text{ mm}$$

6. Old qismining S_7 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_7 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{10 \cdot 95}{2} = 475 \text{ mm}$$

7. Old qismining S_8 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_8 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{15 \cdot 20}{2} = 150 \text{ mm}$$

$$S_{1 \text{ umumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 = 98400 + 14250 + 11700 + 2000 + 1800 + 1350 + 475 + 150 = 187650 \text{ mm}$$

2-mahsulotning orqa qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

1. Orqa qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = S_1' = a \cdot b = 180 \cdot 380 = 68400 \text{ mm}$$

2. Orqa qismining S_2 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = S_2' = a \cdot b = 95 \cdot 150 = 14250 \text{ mm}$$

3. Orqa qismining S_3 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{90 \cdot 70}{2} = 3150 \text{ mm}$$

4. Orqa qismining S_4 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_4 = S_4' = \frac{20 \cdot 200}{2} = 2000 \text{ mm}$$

5. Orqa qismining S_5 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_5 = S_5' = \frac{20 \cdot 180}{2} = 1800 \text{ mm}$$

6. Orqa qismining S_6 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_6 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{90 \cdot 80}{2} = 3600 \text{ mm}$$


7. Orqa qismining S_7 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_7 = S_7' = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{10 \cdot 95}{2} = 475 \text{ mm}$$

8. Orqa qismining S_8 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_8 = S_8' = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{15 \cdot 20}{2} = 150 \text{ mm}$$

$$S_{2\text{ umumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 = 98400 + 14250 + 11700 + 2000 + 1800 + 1350 + 475 + 150 = 187650 \text{ mm}$$



11-rasm. Mahsulotning yeng qismini yuzasini ko'rinishi

2-chi mahsulotni andozalar yuzasini hisobi. Bolalar komplektining yeng qismi ko'rinishi bo'lib, mahsulotni yarim qismini hisoblab uni ikkiga ko'paytirdik. Maqsad hisob kitobdan vaqtni qisqartirish uchun

1.Yeng qismining S_1 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_1 = a \cdot b = 240 \cdot 90 = 21600 \text{ mm}$$

2.Yeng qismining S_2 uchburchak yuzasini hisobi

$$S_2 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{35 \cdot 240}{2} = 4200 \text{ mm}$$

3.Yeng qismining S_3 to'rtburchak yuzasini hisobi

$$S_3 = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{125 \cdot 130}{2} = 8125$$

$$S_{3\text{ umumiy}} = S_1 + S_2 + S_3 = 55045 \text{ mm}$$

$$S_{\text{umumiy}} = S_{1\text{ umumiy}} + S_{2\text{ umumiy}} + S_{3\text{ umumiy}} = 616 + 634 + 544 + 1700 = 3494 \text{ sm}^2$$

1.9. Bir mahsulotga ketgan xom-ashyo sarfining hisobi

1-chi mahsulot .To'shama yuzasi hisobi.

$$S_1 = x * (sh - b) * L = 2 * 484 = 87120 \text{ sm}^2$$

x —to'shamadagi to'qimani bir yoki ikki qavatligini inobatga oluvchi ko'rsatgich,

sh —shrina,

L —uzunligi.

2.To'shamadagi mahsulot andazalari yuzalari.

$$S_2 = x * S_m = 18 * 4060 = 73080 \text{ sm}^2$$

x -to'shamadagi joylashgan mahsulot andozalari birlik hisobi.

S_m -andozalarning umumiy hisobi.

3.Asosiy chiqindilar yuzasi to'shama yuzasidan umumiy mahsulot andozalar yuzasini ayirish bilan aniqlanadi.

$$S_3 = S_1 - S_2 = 87120 - 73080 = 14040 \text{ sm}^2$$

Qo'shimcha chiqindilar asosan tarmoq uchun meyoriy xujjatlar qilingan koeffisientlar yordamida aniqlanadi

$$X_D = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 = 2 + 0.25 + 2 + 0.5 = 4.75 \%$$

X_1 — 2 trafarit oxiri %

X_2 — 0.25 to'qima cheti %

X_3 — 2 loskut qoldig'i %

X_4 — 0.5 nuqsonli to'qima %

5. Asosiy chiqindilar miqdori % hisobida.

$$X_0 = \frac{(S_2 * (100 - X_D))}{S_1} = \frac{14040 * (100 - 4.75)}{87120} = 15.3\%$$

6.umumiy chiqindilar miqdori % hisobida.

$$X_P = X_0 + X_D = 15.3 + 4.75 = 20\%.$$

7.maxsulot birligiga umumiy sarflangan to'qima yuzasi hisobi.

$$S_4 = \frac{S_M * 100 * K_y}{100 - X_P} = \frac{4060 * 100 * 0.98}{80} = 4974 \text{ sm}^2$$

8.Mahsulot birligiga sarflangan xom ashyo og'irlik hisobida.

$$Q = \frac{S_M * Q}{10000} = \frac{4974 * 188}{10000} = 94 \text{ gr.}$$

$$Q_{tuk} = \frac{Q * 100}{100 - 0.4} = \frac{94 * 100}{99.6} = 94.4 \text{ gr.}$$

$$Q_{PAR} = \frac{Q_{tuk} * 100}{100 - 4.7} = \frac{94.4 * 100}{95.4} = 99.05 \text{ gr.}$$

$$Q_{MAX} = \frac{Q_{PAR} * 100}{100 - 0.5} = \frac{99.05 * 100}{99.5} = 100 \text{ gr.}$$

2-maxsulot uchun

1.To'shama yuzasi hisobi.

$$S_1 = x * (sh - b) * L = 2 * 760 * 16.4 = 249280 \text{ sm}^2$$

x – to'shamadagi to'qimani bir yoki ikki qavatligini inobatga oluvchi ko'rsatgich,

sh – shrina,

L – uzunligi.

2.To'shamadagi mahsulot andazalari yuzalari.

$$S_2 = x * S_m = 6 * 484960 = 2909760 \text{ sm}^2$$

x – to'shamadagi joylashgan mahsulot andozalari birlik hisobi.

S_m – andozalarning umumiy hisobi.

3. Asosiy chiqindilar yuzasi to'shama yuzasidan umumiy mahsulot andozalar yuzasini ayirish bilan aniqlanadi.

$$S_3 = S_1 - S_2 = 249280 - 290976 = 41696 \text{ sm}^2$$

Qo'shimcha chiqindilar asosan tarmoq uchun meyoriy xujjatlar qilingan koeffisientlar yordamida aniqlanadi

$$X_D = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 = 2 + 0.25 + 2 + 0.5 = 4.75 \%$$

$$X_1 - 2 \text{ trafarit oxiri.}\%$$

$$X_2 - 0.25 \text{ to'qima cheti}\%$$

$$X_3 - 2 \text{ loskut qoldig'i}\%$$

$$X_4 - 0.5 \text{ nuqsonli to'qima}\%$$

5. Asosiy chiqindilar miqdori % hisobida.

$$X_0 = \frac{(S_3 * (100 - X_D))}{S_1} = \frac{41696 * (100 - 4.75)}{249280} = 15.9 \%$$

6. umumiy chiqindilar miqdori % hisobida.

$$X_P = X_0 + X_D = 15.9 + 4.55 = 20\%.$$

7. mahsulot birligiga umumiy sarflangan to'qima yuzasi hisobi.

$$S_4 = \frac{S_M * 100 * K_y}{100 - X_P} = \frac{484960 * 100 * 0.98}{80} = 594076 \text{ sm}^2$$

8. Mahsulot birligiga sarflangan xom ashyo og'irlik hisobida.

$$Q = \frac{S_M * Q}{10000} = \frac{142.2 * 594076}{10000} = 84.48 \text{ gr.}$$

$$Q_{Tuk} = \frac{Q * 100}{100 - 0.4} = \frac{8448 * 100}{99.6} = 84.8 \text{ gr.}$$

$$Q_{PAR} = \frac{Q_{tuk} * 100}{100 - 4.7} = \frac{84816 * 100}{95.4} = 88.9 \text{ gr.}$$

$$Q_{MAX} = \frac{Q_{PAR} * 100}{100 - 0.5} = \frac{889056 * 100}{99.5} = 89.3 \text{ gr.}$$

KRO hisobi.

Mashinalarning KRO si ularni yil davomida bekor turishlari foiziga (%) bog'liq holda aniqlanadi:

$$KRO=1-\frac{a}{100}, a = a_1 + a_2 + a_3 + a_4$$

Bu yerda: a_1 —mashinalarni capital ta'mirlashda bekor turishlari foizi (%), a_2 - mashinalarda o'rta ta'mirlashda bekor turishlar foizi (%), a_3 —mashinalarni joriy ta'mirlashda bekor turishlar foizi (%), a_4 —mashinalarni tozalash vaqtida bekor turishlar foizi (%).

PAYLUNG va MONARCH trikataj to'quv mashinasi kapital tamirlovchi vaqt normasi 194 ishchi soatiga teng. Ta'mirlovchi vaqt oralig'I 6 yilda 1 marta. Brigada ishchilar soni 6 kishi. Mashina ishlash rejimi 2 smena. Ta'mirlovchilar brigadasining ishlash rejimi 1 smena. Mashinalarning ishlash vaqti 4148 soat. Hisoblash ishlari brigade tomonidan bajariladigan ishning hajmini aniqlashdan boshlanadi. Har bir ishchi kuniga 7.41 soatdan ishlasa brigade ishchilari $6 \cdot 7.41 = 44.46$ ishchi/soat ishlaydi. Mashinalarni capital tamirlashga yiliga $194/44.46 = 4.36$ kun sarflansa, ta'mirlovchilar brigadasi 1-smenada $4.36 \cdot 7.41 = 32.3$ soat, 2-smenada $4 \cdot 7.41 = 29.64$ soat ishlaydi. Demak, jami 61.94 soat ishlaydi.

$$a_1 = \frac{\text{Mashinalarni bekor turish vaqti} * \text{oralig'i} * 100}{\text{Mashinalar ishlash vaqti}} = \frac{61.94 * 1 * 100}{6 * 4148} = \frac{6194}{24888} = 2.48\%$$

O'rta ta'mirlash vaqti xam kapital ta'mirlash kabi aniqlanadi.

PAYLUNG Monarch trikotaj to'quv mashinasi uchun o'rta tamirlash vaqti normasi 100 ishchi soatga teng. Ta'mirlash vaqti oralig'i 1 yilda 1 marta. Mashinalarni o'rta tamirlashga yiliga $100/29.64=3.37$ kun sarflansa, ta'mirlovchi $3.37*7.41=24.37$ soat ishlaydi.

$$a_2 = \frac{\text{Mashinalarni bekor turish vaqti} * \text{oralig'i} * 100}{\text{Mashinalar ishlash vaqti}} = \frac{24.97 * 1 * 100}{1 * 4148} = 0.6\%.$$

Mashinalarni joriy ta'mirlash vaqti bekor turishlar foizi 1-3% oraliqda olinadi.

Mashinalarni ishlash holatidan kelib chiqib, $a_3=2\%$ olamiz.

Mashinalarni tozalash vaqtida bekor turishi ularning texnologik holatini hisobga olgan holda har 3 oyda 1 marta, 1 oyda 1 marta, yoki xaftada 1 marta o'tkazilishi mumkin. Agar mashinalar 3 oyda 1 marta tozalansa, ularni tozalashga 2-4 soat vaqt ketsa, bekor turishlar foizi

$$a_4 = \frac{3 * 1 * 100}{3 * 346} = 0.28\% \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Demak $a=2.48+0.6+2+0.28=5.36$.

$$KRO=1-\frac{a}{100}=1-\frac{5.36}{100}=0.95 \text{ ga teng.}$$

PAYLUNG va Monarch mashinasi uchun meyorlash kartasi hisobi.

1. Mashinaning nazariy ish unumdorligini topamiz.

$$A_t = \frac{T * i * n * m * l}{1000 * N * 1000} = \frac{60 * 2544 * 25 * 90 * 2.7}{50000} = \frac{927288}{50000} = 18.5 \text{ kg/soat}$$

2. Mashinaning vaqti ko'rsatkichi hisoblaymiz.

$$t_m = \frac{T_{sm}}{A_T} = \frac{3600}{18.5} = 194 \text{ sek.}$$

3. Masinalarga xizmat ko'rsatish normasi hisoblaymiz.

$$H_0 = \frac{t_m + t_{bn}}{t_n + t_{bn}} * K_z = \frac{194 + 50}{13 + 50} * 0.65 = \frac{244}{63} = 2.5 \text{ ta.}$$

Biz qabul qilamiz 2 ta.

4. To'quvchilik har bir mashinada band bo'lish koeffisientini hisoblaymiz.

$$K_z = \frac{t_n + t_{vn}}{(t_m + t_{vn}) * K_z} = \frac{13 + 50}{(134 + 50) * 0.65} = \frac{63}{158} = 0.39.$$

5. To'quvchining dastgohlarga xizmat ko'rsatish normasi va har bir mashinada band bo'lish koeffisientini interpolatsiyalab, $K_z = 1.01$ koeffisientni topamiz.

6. Mahsinani vaqtini operativ vaqtdagi ulishini ifodalovchi K_s koeffisientini topamiz.

$$K_a = \frac{t_m}{(t_m + t_{vn}) * K_s} = \frac{194}{(194 + 50) * 1.01} = \frac{194}{246} = 0.79.$$

7. Operativ vaqtning ish smenasi davomidagi ulishini ifodalovchi K_a koeffisientni hisoblaymiz.

$$K_v = \frac{T_{sm} - T_b}{T_{sm}} = \frac{28800 - 900}{28800} = \frac{27900}{28800} = 0.97.$$

8. Vaqtdan foydalanish koeffisientini aniqlaymiz.

$$KIP = K_a * K_b = 0.79 * 0.97 = 0.77.$$

9. Mashinaning amaliy ish unumdorligi.

$$H_M = A_t * KIP = 18.5 * 0.77 = 14.3 \text{ kg/soat}.$$

10. To'quvchining maxsulot ishlab chiqarish normasi.

$$H_v = H_m * H_o = 14.3 * 2 = 28.6 \text{ kg/soat}.$$

I.10 Bir yillik maxsulot ishlab chiqarish hajmi hisobi.

1.assortiment uchun.

$$V_{kg}^y = M_z * H_m * KRO * T_{yl} = 4 * 14.5 * 0.95 * 4148 = 225402 \text{ kg}.$$

$$V_{kg}^{kun} = \frac{225402}{280} = 806 \text{ kg}.$$

$$V_{kg}^{sm} = \frac{806}{2} = 403 \text{ kg}, V_{dona}^{yil} = \frac{V_{kg}^{yil}}{Q_{max}} = \frac{225402}{0.1} = 2254020 \text{ dona}. V_{dona}^{kun} = \frac{2254020}{280} = 8050 \text{ dona}.$$

$$V_{dona}^{sm} = \frac{8050}{2} = 4025 \text{ dona.}$$

Manarch mashinasida ayollar yengi uzun futbolkasi uchun meyorlash kartasi hisobi.

Me'yorlash kartasi quyidagi tartibda hisoblanadi:

2-assortiment uchun:

1. Mashinaning nazariy ish unumdorligini hisoblaymiz.

$$A_t = \frac{T * i * p * m * l}{1000 * N * 1000} = \frac{60 * 1320 * 40 * 60 * 2.7}{1000 * 50 * 1000} = \frac{513216}{50000} = 10.2 \text{ kg/soat}$$

2. Mashina vaqti ko'rsatkichi hisoblanadi. $t_m = \frac{T_{sm}}{A_t} = \frac{3600}{10.2} = 352 \text{ sek}$

3. Mashinalarga xizmat ko'rsatish normasi hisoblanadi.

$$H_o = \frac{t_m + t_{vn}}{t_n + t_{vn}} * K_z = \frac{352 + 90}{24 + 90} * 0.65 = 2.5. \text{ biz qabul qilamiz 2 ta.}$$

4. To'quvchining har bir mashinada band bo'lish koeffisientini hisoblaymiz.

$$K_z = \frac{t_m + t_{vn}}{(t_n + t_{vn}) * K_z} = \frac{24 + 90}{(352 + 90) * 0.65} = \frac{114}{287} = 0.39$$

5. To'quvchining dastgoxlarga xizmat ko'rsatish normasi va har bir mashinada bant bo'lish koeffisientini interpoliyasalab, K_s koeffisientini topamiz.

$$K_s = 1.01$$

6. Mashina vaqtini operativ vaqtdagi ulusini ifodalovchi K_a koeffisientini topamiz.

$$K_a = \frac{t_m}{(t_m + t_{vn}) * K_s} = \frac{352}{(352 + 90) * 1.01} = \frac{352}{446} = 0.79$$

7. Operativ vaqtning ish smenasi davomidagi ulishini ifodalovchi K_b koeffisientini hisoblaymiz.

$$K_b = \frac{T_{sm} - T_b}{T_{sm}} = \frac{28800 - 900}{28800} = \frac{27900}{28800} = 0.97$$

8. Vaqtdan foydalanish koeffisienti aniqlaymiz.

$$KPV = K_a * K_b = 0.79 * 0.97 = 0.77$$

9. Vaqtdan foydalanish koeffisientini aniqlaymiz.

$$H_m = A_t * KPV = 10.2 * 0.77 = 8 \text{ kg/soat}$$

10. To'quvchining maxsulot ishlab chiqarish normasi.

$$H_v = H_m * H_o = 8 * 2 = 16 \text{ kg/soat}$$

Yillik maxsulot ishlab chiqarish hajmi hisobi

2-assortiment uchun:

$$V_{kg}^y = M_z * H_m * KRO * T_{yl} = 4 * 8 * 0.95 * 4148 = 126099 \text{ kg.}$$

$$V_{kg}^{kun} = \frac{126099}{280} = 450 \text{ kg.}$$

$$V_{kg}^{sm} = \frac{450}{2} = 225 \text{ kg, } V_{dona}^{yil} = \frac{V_{kg}^{yil}}{Q_{max}} = \frac{126099}{0.089} = 1416848 \text{ dona. } V_{dona}^{kun} = \frac{1416848}{280} = 5060 \text{ dona.}$$

$$V_{dona}^{sm} = \frac{5060}{2} = 2530 \text{ dona.}$$

1.11. asosiy omborlar va yordamchi xonalar yuzasi hisobi.

1. xom ashyo ombori.

Bir unda ishlatiladigan xom ashyo miqdori hisobi.

$$v_{tonna.kun} = \frac{v_{kg.kun}}{1000} = \frac{1256}{1000} = 1.256 \text{ tonna.}$$

Zapas koef $K_z = 1 \div 3$

1^2m ga tushadigan og'irlik $N=0.135$

$KIP=0.4 \div 0.7$

$$\sum_S \frac{v_{tonna.kun} * K_z}{KIP * N} = \frac{1256 * 4}{0.126} = 39m^2. \text{ Qabul qilamiz } 40 m^2$$

1. Nuqson tekshirish mashinasi BM-120.

Ish unumdorligi $H_p = 500 \text{ kg/sm.}$

Mashina uzunligi-2.1 m

Mashina eni-1.9 m

Bitta mashina egallaydigan yuza

$$S_m = a * b = 2.1 * 1.9 = 3.99$$

Mashinalarni sonini tipamiz. $n = \frac{v_{kg.sm}}{H_n} = \frac{628}{500} = 2 \text{ dona.}$

$$\sum_S n * \frac{S_m}{KIP} = 2 * \frac{3.99}{0.4} = 20 m^2$$

2. Pardoqlash sexi.

